

VAQFNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Abdulhayev Bekmurod
Toshkent Islom Instituti 4-kurs talabasi

Annotatsiya (O'zbekcha): Ushbu maqolada islom tarixida muhim o'rinni tutgan vaqf tizimi va uning bugungi kundagi ahamiyati tahlil qilinadi. Muallif vaqfning musulmon jamiyatidagi ijtimoiy-iqtisodiy roliga, xususan, ta'limga, sog'liqni saqlash, infratuzilma va qashshoqlikka qarshi kurashishdagi o'rniga e'tibor qaratadi. Tarixiy misollar va zamonaviy tajribalarga tayangan holda, vaqf muassasalarining zamonaviy shakllari, jumladan, cash waqf va vaqf banklari haqida ham so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar (O'zbekcha): Vaqf, musulmon jamiyati, cash waqf, islom iqtisodiyoti, xayriya, ta'limga, sog'liqni saqlash, qashshoqlik, infratuzilma.

Annotation (Inglizcha): This article analyzes the Islamic institution of waqf and its relevance in the modern era. The author focuses on the socio-economic role of waqf in Muslim societies, particularly in education, healthcare, infrastructure, and poverty alleviation. Drawing on historical examples and contemporary practices, the article discusses modern forms of waqf institutions, including cash waqfs and waqf-based banking.

Keywords (Inglizcha): Waqf, Muslim society, cash waqf, Islamic economy, charity, education, healthcare, poverty, infrastructure

Аннотация (Ruscha): В данной статье рассматривается система вакуфов в исламской истории и её актуальность в современности. Автор акцентирует внимание на социально-экономической роли вакуфов в мусульманском обществе, особенно в сфере образования, здравоохранения, инфраструктуры и борьбы с бедностью. На основе исторических примеров и современных практик освещаются современные формы вакуфных учреждений, включая денежные вакуфы и вакуфные банки.

Ключевые слова (Ruscha): вакуф, мусульманское общество, денежный вакуф, исламская экономика, благотворительность, образование, здравоохранение, бедность, инфраструктура.

Tarixda vaqfning musulmon jamiyati shakllanishi va rivojiga katta ta'sir qilganini, bugungi kunda ham vaqf mulklarining musulmon jamiyati taraqqiyotiga ta'siri salmoqli ekanini aytib o'tishimiz darkor. Qadimdan badavlat musulmonlar dunyo va oxirat yaxshiliklarini qo'liga kiritish uchun Alloh ularga rizq qilib bergen narsalardan infoqe-hesonlar qilishda peshqadam bo'lganlar. Vafotlaridan so'ng ham qiyomatga qadar savobidan bahramand bo'lishlari uchun o'z mulklaridan bir qismini Alloh yo'lida vaqf qilganlar. Zero, vaqf bu sadaqai joriyaning bir turidir.

Vaqflar ijtimoiy himoyaning barcha turini o‘zida qamrab olgan. Vaqf shifoxonalari, vaqf madrasalari, vaqf mehmonxonalar, rabotlar, masjidlar, yo‘llar, ko‘priklar, ehtiyojmandlarni taom bilan ta’minlovchi vaqflar, qarzdorlarga yordam beruvchi vaqflar, musofirlar uchun ajratilgan vaqflar va boshqa ko‘plab yo‘nalishda faoliyat yurituvchi vaqf tashkilotlari bor edi.

Vaqf mulklari xususiy mulkchilik shaklidan chiqadi. Shu bilan birga, davlatga ham tegishli hisoblanmaydi. Vaqflarni jamiyatning ma’lum ehtiyojlarini qondiradigan jamoa mulki deyish mumkin. Zotan, vaqf qilishdan ham maqsad Alloh taoloning roziligini istab, boshqalarga manfaat yetkazadigan xayrli loyiha qilishdir.

Vaqf shifoxonalari mudarris va talabalar uchun ham tadqiqot markazi bo‘lib xizmat qilgan. Masalan Roziy (841-926), Zahraiy (931-1013), Ibn Sino (980-1037), Ibn Rushd (1126-1198), Ibn Nafis (1208-1288) kabi yetuk allomalarning yetishib chiqishida ham bunday muassasalarning xizmati beqiyos bo‘lgan. Vaqf shifoxonalari tibbiyot talabalari uchun o‘z davrining eng yaxshi uskunalari bilan jihozlangan va ilmiy meros jihatidan ham juda boy hisoblangan. Masalan, XIV asrda Misrdagi Ibnu Tulun shifoxonasi qoshidagi kutubxonada 100 mingdan ortiq tibbiyotga oid kitoblar mavjud bo‘lgan bo‘lsa, o‘sha davrda Yevropadagi eng katta kutubxonaga ega Parij universitetida atigi 400 turdagи kitoblar saqlangan.¹

Mashhur musulmon sayohatchisi Ibn Battuta sakkizinchи hijriy yuz yillikda Bahriy Mamluklar hukmi ostidagi Damashq shahrida ko‘rgan o‘nlab turdagи, yuzlab vaqf muassasalarini ko‘rgandagi hayratini quyidagicha ifoda etadi: “Damashqdagi vaqflarning turi va saflanish jihatlari shu qadar ko‘pligidan, ularning sanog‘iga yetib bo‘lmaydi. Masalan, hajga borolmaydiganlar uchun ularning nomidan haj qiluvchilarni yetarli mablag‘ bilan ta’minlaydigan vaqflar, qizlariga sep qilishga kuchi yetmaydigan oilalarning qizlariga barcha sep va jihozlarini tayyorlab, to‘yini o‘tkazib beradigan vaqflar, asirlarni ozod qilish uchun kerakli mablag‘larni beruvchi vaqflar, musofir yurtda puli tugab qolganligi tufayli uyiga qaytib ketolmayotgan musofirlar uchun xoslangan vaqflar bor. Bunday turdagи vaqflar musofirlarga taom, kiyim-kechak va yurtlariga qaytish uchun kerakli narsalarni taqdim etadi. Shuningdek, yo‘llarni to‘g‘rilash va ularga tosh yotqizish uchun mo‘ljallangan vaqflar ham bularga misol bo‘la oladi. Chunki, Damashq ko‘chalari shunday tarzdaki, uning ikki chetida piyodalar yuradigan yo‘lkalar bo‘ladi, o‘rtasidagi (kattaroq) yo‘lkada esa otliqlar yuradi. Yana, sanaganlarimizdan boshqa xayr ishlari uchun ochilgan turli xil vaqflar bor”.²

Musulmon mamlakatlarida davlat va din arboblarini yetishtirish maqsadida maktab va madrasalar, diniy ibodatlarni ado etish uchun masjidlar, aholi uchun musofirxona,

¹ “Vaqfning ijtimoiy-iqtisodiy adolat va taraqqiyotni ta’minlashdagi o‘rnii” <https://islommoliyasi.uz/uz/vaqfning-ijtimoiy-iqtisodiy-ahamiyati/>

² A. Sultonxo‘jayev. Ibn Battutaning sayohati. 99-bet.

yetimxona, kasalxona, langar va boshqa xayriya muassasalari bunyod etilgan. Ana shu bino va muassasalarda bo‘ladigan xarajatlar (imom, muazzin haqi, joynamoz, ta’mir, shogirdlarning nafaqasi, tabiblar va boshqa xizmatchilarining maoshi, kitoblardan nusxa ko‘chirtirish haqi va boshqa chiqimlar)ni shu binoni qurdirgan kishilar ta’minlab turganlar. Bino egasi (muassis) doimiy daromad berib turadigan joylar (er, tegirmon, objuvoz, savdo do‘koni, karvon saroy, hammom, hunarmandchilik korxonalari va b.)ni shu bino (muassasa) ma’muriyatiga qozixonada rasmiylashtirilgan hujjat – vaqfnoma bilan o’tkazib bergen. O‘z mulkini vaqfga topshirgan shaxs mazkur mulkka nisbatan egalik huquqini yo‘qotadi. Lekin uning o‘zi yoki oila a’zolari yoxud u tomonidan tayinlanadigan uchinchi bir shaxs vaqf mulkidan vaqfnomada qayd etilgan maqsadlarda foydalanimishini nazorat etish va ta’minalash uchun vaqf mulkini boshqarish huquqini saqlab qolishi mumkin. O‘z mulkini vaqf mulki sifatida topshirgan shaxsning farzandlari yoki boshqa avlodlari mazkur vaqf mulkidan keladigan daromadlardan nafaqa olib turishi mumkin.

Demak, vaqf mulklari musulmon jamiyatining rivoji uchun tayanch bo‘lib xizmat qilgan. Xususan ta’lim tizimi rivoji uchun ulkan hissa qo‘shgan. Shuningdek, jamiyatdagi beva-bechoralar va miskinlarni kunlik ozuqa bilan ta’minalashda ham alohida ahamiyatga ega bo‘lgan. Masjidlar ibodat uchun vaqf qilingan. Qisqacha aytganda jamiyatdagi har bir soha rivojida vaqf mulklarining o‘ziga xos ahamiyati bo‘lgan.

Hozirgi kunda ham dunyodagi kambag‘allik darajasini kamaytirish va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga yechim topishda vaqf mulklaridan foydalanimish mumkin. Masalan, ta’lim maskanlari, sog‘liqni saqlash markazlari, chekka hududlardagi aholi uchun quduqlar qazish, shu hududlardagi yuqumli kasalliklar oldini olish uchun suv tozalash texnikalarini ishga tushirish va boshqalar.

Vaqf tizimining inson va jamiyat taraqqiyotini ta’minalashdagi o‘rniga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin:

1. Vaqf ham zakot kabi boyliklar taqsimoti va ularning samaradorligi oshishiga xizmat qiladi;

2. Sog‘liqni saqlash, infratuzilma/shaharsozlik, ta’lim tizimi rivojiga kiritilgan vaqf ko‘rinishidagi beminnat sarmoyalar, davlat budgetining ijtimoiy himoyaga ajratilayotgan qismining muayyan darajada o‘rnini qoplaydi va shu orqali davlat xarajatlarining bir qismini o‘ziga oladi (davlat budgetidan tejab qolning mablag‘larni esa iqtisodiyotning boshqa sohalarga yo‘naltirish imkoniyati paydo bo‘ladi);

3. Mamlakat infratuzilmasining yaxshilanishi iqtisodiyot o‘sish sur’atlarining tezlashishiga va barqaror iqtisodiyotga erishishga yordam beradi;

4. Mamlakat fuqarolari (va hatto boshqa yurtlardan kelgan qiynalib qolgan musofirlar)ning davlat va yurtning badavlat kishilaridan (ularning vaqf uchun ajratgan boyliklari sababli) roziligi sabab jamiyat a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar va umumiy muhit yaxshilanadi;

5. Vaqfning sog‘liqni saqlash va ta’lim sohasi rivojiga qo‘s shgan hissasi mamlakat fuqarolari uchun imkon qadar teng imkoniyatlar yaratishga yordam beradi, teng imkoniyatlar esa ijtimoiy adolatni ta’minalashga xizmat qiladi.³

Vaqf muassasalari vaqf mulklaridan olinadigan foydani xayriya maqsadlariga yo‘naltirishda juda katta imkoniyatlarga ega deyish mumkin. Vaqf muassasalari shaxsiy vaqf jamg‘armasi, jamoaviy vaqf jamg‘armasi, vaqf banki, xayriyaga ixtisoslashgan alohida vaqf tashkiloti kabilardan biri ko‘rinishida tashkil etilishi mumkin.

Vaqf banklari mikromoliyalash va xayriya ishlarini yuritish maqsadida tuziladigan alohida bankchilik shakli bo‘lib, undagi barcha moliyaviy amaliyotlar shariat talablariga, shu jumladan, islom bankchiligi tamoyillariga muvofiq holda amalga oshiriladi.

Vaqf banklariga mablag‘lar naqd pul ko‘rinishidagi vaqflar (cash waqfs)ni jalg etish, shuningdek, aholi va tadbirdorlar, davlat va jamoat tashkilotlarining bo‘sh turgan mablag‘larini “muzoroba, vakolat” kabi shartnomalar asosida omonat hisob raqamlariga (depozit sifatida) qabul qilish, hamda zakot, ehson va sadaqalar yig‘ish hisobiga shakllantirilishi mumkin. Bankka yig‘ilgan mablag‘lar qarzi hasana ko‘rinishida aholining kam ta’milangan qismiga yoki ishonchli va istiqbolli loyihalarga ega mikrofirmalarga ajratilishi, shu bilan bir qatorda yuqori daromadli sohalarga investitsiya ko‘rinishida kiritilishi ham mumkin.

Vaqf muassasasini bank darajasigacha olib chiqish Turkiya va Bangladeshda amalga oshirilgan bo‘lib, Bangladeshdagi bir qancha islom banklarida alohida “Cash waqf based Mudaraba deposit accaunts” (naqd pul ko‘rinishidagi vaqflarga asoslangan Mudoraba depozit hisob varaqlari) yo‘lga qo‘yilgan. Bu jarayonda mablag‘ ajratuvchilar robb ul-malsarmoyadorlar, islom banki esa ish yurituvchi-mudorib sifatida faoliyat yuritadi hamda olingan foyda ma’lum nisbatda tomonlar o‘rtasida taqsimlanishiga kelishiladi, zarar esa mudoraba bitimining mohiyatiga ko‘ra sarmoya egasining zimmasida bo‘ladi. Bank olingan foydaning o‘ziga tegishli qismini ma’muriy xarajatlarini qoplashga ishlatadi, sarmoya egalari esa o‘zlariga tegishli foydani yana hisob-varaqqa qaytarib qo‘yishlari yoki ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega ishlarga sarflanishiga rozilik berishlari mumkin.

Vaqfning ta’rifiga binoan, iste’mol qilinsa, yo‘q bo‘lib ketadigan narsalarni, masalan, bir qop un, go‘sht, bir kosa ovqat kabilarni vaqf qilib bo‘lmaydi. Chunki bu kabi narsalardan doimiy manfaat olib turilmaydi, balki iste’mol qilinishi bilan manfaati ham tugaydi. Lekin doimiy manfaat kelib turadigan narsalarni vaqf qilish joizdir. Misol uchun, bir gektar yer yoki 10 sotix bog‘ kabilar vaqf qilinsa, o’sha yer va bog‘dan chiqadigan hosillar sadaqa qilinishi nazarda tutiladi.

Bu o‘rinda ayrim insonlarda savol tug‘ilishi mumkin: naqd pulni vaqf qilish mumkinmi? Avval naqd vaqflarga berilgan ta’riflarni o‘rganib chiqsak.

³ “Vaqfning ijtimoiy-iqtisodiy adolat va taraqqiyotni ta’minalashdagi o‘rnii” <https://islommoliyasi.uz/uz/vaqfning-ijtimoiy-iqtisodiy-ahamiyati/>

Hanafiy ulamolaridan Imom Zufar (110-158 hijriy) naqd vaqfga “naqd pulni vaqf sifatida ajratish va uni sarmoya ko‘rinishida biror ishga tikish, undan olingan foydani esa vaqfning muayyan xayriya loyihasiga yo‘naltirish” deb tavsiflagan (Ibn Nujaym).

Xuddi shu ma’noda, ba’zi zamondosh olimlar naqd vaqfni “pul mablag‘lari bilan tashkil etilgan xayriya yordami” deb ta’riflagan bo‘lishsa, boshqa birlari “ma’lum miqdordagi pulni xayriya qiluvchining tasarrufidan chiqib, undan keladigan manfaatni jamiyat farovonligini ta’minlash maqsadida safarbar etish” deb izohlashgan.

Naqd vaqflarning joiz ekanligiga vaqfning Kitob, Sunnat va ijmoga muvofiq ekanligi dalil qilib keltiriladi. Hozirgi davrdagi naqd pullardan ularni yo‘qotmasdan, zarar yetkazmasdan foydalanish/manfaat olish mumkin: bunda ular qarzga beriladi va ma’lum muddatdan so‘ng qaytarib olinadi. Yoki pulning aslini investitsiya qilish bilan olingan foyda o‘zaro taqsim qilinadi. Vaqf mulki yaroqsiz holga kelib qolsa yoki ishlatilmay tursa, uni sotib, o‘rniga boshqa vaqf mulkini sotib olish mumkin. Bu bilan ham vaqfdan qasd qilingan narsa amalga oshaveradi. Naqd vaqflarda ham vaqf qilingan pulning o‘rni boshqa pul bilan to‘ldiriladi.

Islom Hamkorlik Tashkiloti qoshidagi Islom fiqhi akademiyasi doimiy va vaqtinchalik naqd vaqflarni joiz deb qaror chiqargan (1425-hijriy 14-19-muharram, Maskat, Ummon sultonligi, 15-majlis).

Shuningdek, Islom moliya muassasalari uchun buxgalteriya va audit tashkiloti (AAOIFI) 33-shariat standarti 3/4/3 bandida naqd pul vaqfi, ulush va sukuk ko‘rinishidagi vaqflar joizligi ta’kidlangan.

Fatvolar va tadqiqotlar bo‘yicha Yevropa kengashining (European Council for Fatwa and Research) 1431-hijriy (2010-milodiy) sanada o‘tkazgan 20-majlisida ham naqd pul ko‘rinishidagi vaqflarning joizligi yuzasidan 20/1 sonli qaror qabul qilgan.⁴

Ma’lumki, qashshoqliknini kamaytirish muammosi bugungi kunda dunyodagi eng katta muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Bu borada cash vaqf – naqd pulga asoslangan vaqf turidan samarali foydalanish mumkin, chunki bunday vaqflar kichik korxonalar uchun foizsiz qarz berish uchun ishlatiladi, shuningdek vaqf boshqaruvchilarining qaroriga binoan, tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun ham vaqf hisobidan beg‘araz boshlang‘ich moliyaviy yordam ajratilishi mumkin.

Sobiq Usmonli imperiyasida juda uzoq vaqt davomida bunday vaqflar muvaffaqiyatlari qo‘llangan va qashshoqliknini kamaytirishga hissa qo‘shgan. Shuningdek, Marokashning Fes shahrida ham hech qanday ustamalarsiz qarz berish va qarz olish uchun cash vaqf amaliyoti mavjud bo‘lgan. Hozirgi kunda ba’zi mamlakatlarda, jumladan, Kuvayt, Omon, BAA va Saudiya Arabistonida cash vaqfning ushbu imkoniyatidan unumli foydalanishmoqda, ya’ni vaqf mablag‘lari xayriyaning bir ko‘rinishi bo‘lgan qarzi hasan (muayyan muddatga foizsiz beriladigan qarz) sifatida ishlatilmoqda.

⁴ “Naqd pul ko‘rinishidagi vaqflar (Cash Waqfs) – II qism” <https://islommoliyasi.uz/uz/cash-waqfs-2/>

Osiyo mamlakatlari, xususan Malayziyada ham cash vaqflardan foydalanishga ruxsat berilgan. Malayziya Milliy Fatvo Kengashi (the Malaysian National Fatwa Council) 2007 yilda cash vaqf joizligi bo'yicha fatvoni qabul qilgan. Malayziyaning Yayasan Waqaf tashkiloti ham cash vaqflarni boshqarish bo'yicha tajriba ega. Bundan tashqari, Agama Islam Selangor (MAIS, Selangor davlat diniy kengashi) tomonidan to'plangan ulkan naqd pul vaqf jamg'armasi islom iqtisodiyotini rivojlantirish, kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish, uy-joylarni bo'lib to'lashga sotish, mol-mulkarga sarmoya kiritish (ijara asosida moliyalashtirish) kabi mahsulot va xizmatlar taqdim etib kelmoqda.

Tadbirkorlik qobiliyati bor, lekin moddiy jihatdan ko'makka muhtoj insonlarga biroz turtki berilsa, ular kambag'allik darajasidagi hayotdan tezroq chiqib ketishlari mumkin bo'ladi. Bu borada cash waqf lar beradigan imkoniyatlardan foydalanish ayni muddao bo'ladi.⁵

Xulosa qilib aytganda, vaqf mulklari musulmon jamiyati rivojida ulkan ahamiyatga ega bo'lgan. Vaqf mulklari mavjud bo'lgani uchun ham ta'lim tizimi gullab-yashnagan, aholining muhtoj qatlami oziq-ovqat bilan ta'minlangan. Turli xil inshootlar – manfaatli binolar, ko'priklar, yo'llar, hammom va karvonsaroylar hamda shu kabi binolar vaqf mulklari hisobidan qurilgan. Bu esa davlat g'aznasi tejalishiga, aholi orasida birdamlik oshishiga xizmat qilgan va boshqa yaxshiliklarga sabab bo'lgan. Shuning uchun bugungi kunda ham vaqf mulklarini ko'paytirishi jamiyat rivoji uchun faqat va faqat foyda keltiradi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qur'oni Karim.
2. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. Shayx Abdulaziz Mansur tarjimasি. "Sharq" nashriyot-matbaasi. "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi. 2007y.
3. "Tafsiri hilol". Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Toshkent: "Hilol nashr" 2008.
4. "Kifoya" 3-juz yangi nashr. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Toshkent: "Hilol nashr" 2015.
5. "Hadis va hayot" 11-juz. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa birlashmasi.
6. "Sahihi Buxoriy" Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2008.
7. Doktor Muhammad ibn Ibrohim al-Xotib. "Asarul vaqf fit-tamniyyatil iqtisodiyiyati" asari,
8. Saloh Muhammad abul-Hoji. "Al-isa'fu fi axkomil avqof" asari. Ummon: "Darul-faruq" 2010.

⁵ "Naqd pul ko'rinishidagi vaqflar (I qism)" <https://islommoliyasi.uz/uz/naqd-pul-korinishidagi-vaqflar-1-qism-2/>